

Kia EV6



Movement that inspires

EV6 elektr krossoveri

Kianing birinchi to'liq elektr avtomobili bilan tanishing. Ko'p jihatlari bo'yicha Kia EV6 krossoveri brendning muhandislari va dizaynerlari erishgan yutuqlarini o'zida aks ettiradi: unda bosib o'tish mumkin bo'lgan masofa (500 km dan ortiq*), futuristik tashqi ko'rinish, salonning innovatsion maydoni, ilg'or texnologiyalar. Kia Ev6 - bu yorqin kelajak sari harakatlanish va haydashning yangi ilhomlantiruvchi tajribasidir.






European-2022
Car of the Year**

*Kia EV6 elektrmobil European-2022 Car of the Year*** Yevropa avtotanlovingin (COTY) / *** toifasi bo'yicha Yil avtomobili mavqeiga sazovor bo'ldi.



G'oyalaringizni amalga oshirish uchun ko'proq vaqt

Kia EV6 siz o'z g'oyalaringizni amalga oshirishingiz uchun kengroq imkoniyatlar taqdim etadi. Zaryadlash kuqilmasi krossoverning batareyasini o'rtacha 20 daqiqada 10% dan 80% gacha to'ldirishga imkon beradi. Bunday tez zaryadlanish tufayli dolzarb ishlaringizni bitirish uchun ko'proq vaqtga ega bo'lasiz.









Elektromobillar uchun yangi E-GMP platformasi

KIA EV6 - KIAning E-GMP global modulli platformasida yaratilgan ilk modelidir. Tez zaryadlanish, yurilishning katta zaxirasi, keng salon va chiqindilarning nolga teng darajasi. Bularning barchasining imkoniga E-GMP yordamida erishildi. Yangi platforma bilan biz elektromobilarni keyingi bosqichga olib chiqmoqdamiz.

KIA EV6 - uzoq marraning ilk qadamidir.

Innovatsion ichki hudud

KIA EV6 ichida bo'lganingizda, juda o'zgacha tuyg'ularni his etasiz. Barcha boshqaruv elementlari haydovchi uchun imkon qadar qulay joylashtirilgan. Siz shunchaki, ushbu krossover rulida o'tkazgan har bir daqiqangizdan lazzat olishingiz kerak bo'ladi.





Har qanaqa yo'lida harakatlanishdagi aqlii texnologiyalar

Kia EV6 da sayohatingiz stress va charchoqsiz, xavfsizroq va qiziqarli o'tishi uchun sizga yuqori texnologiyalar yordamga keladi. Krossoverdagagi proyektsion ekran to'ldirilgan reallik texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, yo'l dagi vaziyat sizni esankirata olmaydi. Yo'lida ketayotganda raqamli displaylarda va old oynada barcha kerakli ma'lumotlarni ko'rib borasiz.





To'ldirilgan reallik funksiyali proektsion ekran (AR-HUD)

Harakatlanish tezligi haqidagi ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, yo'l chizigi bo'ylab harakatlanish yordamchisining maslahatlari old oynaga proyeksiya qilinadi. Ekran sizni yo'ldan chalg'itmaslik uchun, ko'rish chizig'ingizdan sa'l pastroqda joylashgan.



Elektroprivodli lyuk

Salonni havo va quyosh nuri bilan to'ldirish uchun bir marta bosish orqali keng ochiladigan va suriladigan lyukni harakatga keltiring.

Multimediya uskunaları

KIA EV6ning puhta o'ylangan interyeri sayohat qilishga chorlaydi. Biroz egilgan panorama paneli tufayli haydovchi uchun mahsus tajriba yaratiladi. Faol tovushlar jo'rligi tizimi (ASD) krossoverning dinamik imkoniyatlarini his qilish imkonini beradi: ishga tushirilganda u, motor aylanmalari va avtomobil tezligini hisobga olgan holda dvigatelning tovushini imitatsiya qiladi. Premium toifadagi audio tizim hajmli tovush muhitini yaratadi. Salonda mobil qurilmalarni zaryadlash uchun ulagichlar yetarli bo'lib, bu har bir yo'lovchi uchun qo'shimcha qulaylikni yaratadi.




Egilgan panorama paneli

Panoramali display raqamli qurilmalar paneli va multimediya tizimning ikkita 12,3 dyuyumli HD ekranlarini choksiz ravishda birlashtiradi. Intuitiv tushunarli bolgan grafika va sensorli boshqaruv haydovchining maksimal qulayligini ta'minlaydi.



Mobil qurilmalar uchun simsiz zaryadlash moslamasi

Markaziy konsoldagi 15 V quvvatli zaryadlash paneli mos bolgan smartfonni simdan foydalanmasdan tezda zaryad qilish imkonini beradi.



Premium toifadagi Meridian audio tizimi

Britaniyaning yetakchi audio komponentlar ishlab chiqaruvchisi bo'lgan Meridian* ajoyib akustik ta'sirni vujudga keltiruvchi 14 karnayli tizimni ishlab chiqqan. Kuchli tashqi kuchaytirgich ovoz manbasi kuchini oshiradi. Intelli Q** funksiyasi ohangning balandligi va sifatini tezlikka moslashtiradi. Horizon*** tizimi esa 3D ovozli ta'sirni yaratadi.

*Meridian

** Intelli Kyu

*** Xorayzo'n



O'rindiqlar ortidagi USB zaryadlash ulagichlari

Mashina ichidagi har bir kishi qulayliklar bilan ta'minlanadi. Orqa qatordagi yo'lovchilar uchun mobil qurilmalarni zaryadlash USB ulagichlari mavjud.



Multimedia/iqlim tizimini boshqarish bloki

Yorug'lilikdiodli sensorli klaviatura bir marta bosish bilan o'z tartibini o'zgartiradi. Multimediyani boshqarish uchun o'qcha tasviriga yoki iqlim tizimiga o'tish uchun ventilator tasviriga bosing. Funktsional tugmalar displayning o'ng tomonida aks etadi.

Krossover qulayligining yangi bosqichi

Yassi pol va keng kuzov orqali KIA EV6ning dizaynerlari sizning qulayligingiz uchun o'ylangan yechimlarni yaratishda ko'proq erkinlikka ega bo'ldilar. Dam oldiruvchi qulay o'rindiqlar vaznsizlik hissini yaratadilar. Sozlamalarning keng diapazoni, charchoqni minimallashtirib, eng qulay holatda joylashish imkoniyatini beradi.



O'rindiqlarning 2-qatoridagi qulaylik

Ingichka old o'rindiqlar va tekis pol, orqadagi yo'lovchilar oyoqlari uchun ko'proq joyni ta'minlaydi. Bosh suyanchig'i har bir o'rindiqda o'rnatilgan, tirsak markaziy tayanchi esa, stakan ushlagichlariga ega saqlash bo'linmasini o'z ichiga oladi. Markaziy ustunlardagi havo kanallari tetiklantiruvchi havo oqimini yekazib beradilar.



Dam olish uchun qulay o'rindiqlar

Boshqa avtomobilarga qaraganda old o'rindiqlar bir vaqtning o'zida yupqaroq va mustahkamroqdir. Shu bilan birga, ular sozlash uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etadilar. KIA EV6 zaryadlanayotganda, relaksatsiya funksiyasi deyarli gorizontal holatda yotish imkonini beradi. Keng ko'lamli sozlamalar dipazoni tufayli o'rindiq sonlar va belga tushuvchi bosimni kamaytirish uchun mo'ljallangan.



Old o'rindiqlarning ventilyatsiyasi va isitilishi

Ventilyatsiyalanuvchi old o'rindiqlar, haydovchi va yo'llovchiga issiq ob-havo sharoitida qulayroq muhitni ta'minlaydi. Konsoldagi sensorli tugmalar yordamida havo oqimini boshqaring.

G'oyalaringiz uchun hudud

Yangi platforma mashinaga buyumlarni joylashtirish yondashuvini qayta ko'rib chiqish imkonini berdi. Biz kapot ostida, yukxonaning tag qismida, hatto o'rindiqlar orasida va ostida ham saqlash uchun joylarni yaratdik. Agar siz kattaroq buyumlarni tashishingiz kerak bo'lsa, shunchaki orqa o'rindiqlarni yotqizing. Axir, yuklar ham dunyoni yaxshiroq qilishimizga imkon beradigan g'oyalar kabi turli xil o'lchamlarda bo'lishi mumkin.



Elektroprivodli yukxona eshigi

Yoningizda Smart Key bilan mashinaning ortida turing va bir necha soniyadan so'ng yukxona avtomatik ravishda ochiladi. Orqa eshikning ko'tarilishini qulay balandlikda sozlashingiz mumkin.



Konsol tokchasi

Markaziy konsolning yuqori qismida tirsak suyagich, stakan ushlagichlar, simsiz zaryadlash paneli va uning ostida poyabzal, planshet yoki sumkalarni joylashtirish mumkin bo'lgan ochiq joy mavjud.



Old yukxona bo'lmasi (20 l, 52 l)

Kia EV6 yangi platformasining foydali afzalligi - bu qoshimcha buyumlar saqlanish joylaridir. Kapot ostidagi bo'linma to'liq privodli modellarda 10 kg yoki 20 litrgacha, orqa privodli modellarda esa 25 kg yoki 52 litrgacha sig'imga ega.



2-qator o'rindig'i orqa qismining masofaviy buklanishi


Orqa o'rindiqlar ortolarini buklash orqali yukxona hajmini 1300 litrgacha oshirish mumkin. Shunchaki qulay joylashgan dastakni tortish kifoya. U hudda, uzun yoki hajmli buyumlarni yuklash kerak bo'lganda, sizga qoshimcha juft qo'llar kabidir.



Xavfsizlikning ilg'or texnologiyalari

Xavfsizlik va haydovchiga ko'maklashuvchi Drive Wise tizimlari kompleksi, boshqaruvni saqlashga yordam beradigan va haydovchi, yo'lovchilar va piyodalar uchun xavfsizlikni ta'minlaydigan eng yangi texnologiyalardan foydalanadilar *.

* Kia EV6 ilg'or xavfsizlik texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lsa-da, ammo bu haydovchini javobgarlikdan va vaziyatni mustaqil ravishda baholash, yo'l harakati qoidalariga rioxalish va haydovchiga yordam berish tizimlariga to'liq ishonmaslik kabi yolda ehtiyoj bo'lish zaratitidan ozod qilmaydi. Chunki, sinovlar sun'iy ravishda yaratilgan muhitda, ideal sharoitlarda, real yo'l sharoitlardan farq qilishi mumkin bo'lgan sharoitlarda o'tkazilgan.




Frontal to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA)

Kamera va radarlar yordamida FCA tizimi yo'lingiz bo'ylab avtomobillar, piyodalar va velosipedchilarni kuzatib boradi. Zarurat tug'ilganda, tizim sizni ogohlantiradi va to'qnashuvning oldini olish uchun tormozlanishni faollashtiradi.



Avtomobilidan xavfsiz chiqish tizimi (SEW)

Agar orqadan avtomobil kelayotgan bolsa, tizim qisqa signal beradi va eshikni ochishga imkon bermaydi. Salondan chiqishdan oldin yon atrofga qarashni unutmang.



Ko'rinmas zona tomonidan to'qnashuvni oldini olish tizimi (BCA)


Tizim avtomobilining yon va orqa tomonidagi vaziyatni nazorat qiladi va ko'rinmas zona tomonidan yaqinlashib kelayotgan avtomobil aniqlansa, sizni ogohlantiradi. Zarurat bo'lganda, tizim xavfli vaziyatdan qochish uchun tormozlanishni va rul boshqaruvini faollashtiradi.



O'z elektromobilingizga ishoning

Drive Wise texnologiyalari sodir bo'lishi mumkin xavf-xatarlar haqida ogohlantirish uchun yo'lдagi vaziyatni baholab boradilar. Zarurat bo'lganda, tizim nafaqat sizning e'tiboringizni jalb qiladi, balki avtomobilni boshqarishga ham qo'shiladi.

* Kia EV6 ilg'or xavfsizlik texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lsa-da, ammo bu haydovchini javobgarlikdan va vaziyatni mustaqil ravishda baholash, yo'l harakati qoidalariga rioxalish va haydovchiga yordam berish tizimlariga to'liq ishonmaslik kabi yolda ehtiyoj bo'lish zaruratidan ozod qilmaydi. Chunki, sinovlar sun'iy ravishda yaratilgan muhitda, ideal sharoitlarda, real yo'l sharoitlardan farq qilishi mumkin bo'lgan sharoitlarda o'tkazilgan.



Aylanasiga ko'rish tizimi (SVM)

Tor joylarda manevr qilishda bir nechta kameralar avtomobilning yuqorida kattalashiruvchini ko'rinishini ta'minlab, uni ishonchli va xotirjam boshqarish imkonini beradi.



Orqadan to'qnashuvni oldini olish tizimi (RCCA)

RCCA orqaga yurishda chapdan/o'ngdan yaqinlashib kelayotgan transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olishda ko'maklashadi.




Stop&Go funksiyasiga ega intellektual Cruise Control (SCC)

SCC oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofani va haydovchi tomonidan o'rnatilgan tezlikni, shu jumladan avtomatik to'xtash va qisqa to'xtashdan keyin harakatni davom ettirishni ham avtomatik ravishda saqlashga yordam beradi.

Ilhomlanish zaryadlydi

Kombinatsiyalangan KIA EV6 ning zaryadlanishini boshqarish tizimi qo'shimcha adaptersiz 400 V va 800 V kuchlanishlar bilan ishlashga moslashtirilgan. Qaerga borsangiz ham, ushbu crossover sizning mobil quvvat manbaingizga aylanadi. Ilhomlantiruvchi sayohat uchun sizga kerak bo'lgan har qanday elektr qurilmasini unga ulashingiz mumkin. Avtomobildagi issiqlik nasosi esa dvigatel va boshqa qismlardan issiqlikni yig'ishga qodir va shu bilan qishda yurish masofasini yo'qotilishini deyarli 20% ga kamaytira oladi.





Elektromobil uchun global modulli platforma (E-GMP)

KIA EV6 - KIA E-GMP platformasida yaratilgan ilk avtomobildir. Yangitdan ishlab chiqilgan yangi uzun bazali platforma, tekis polni va u bilan birga qulaylik va ergonomika nuqtai nazaridan yangi yechimlarni joriy etish imkonini yaratti. Modulli konstruktsiya samaradorlikdagi, foydalanimishdagi va xavfsizlikdagi maqsadlarga erishish uchun yanada moslashuvchan loyihalash imkoniyatlarini ochib berdi.

Samaradorlikdagi afzalliklar, yuqoriroq quvvatni va yurilish avtonomligini, shuningdek, zaryadlash vaqtini qisqartirishni o'z ichiga oladi.



Zaryadlash ulagichi

Zaryadlov ulagichining lyukchasi, elektrprivod yordamida ochiladi va yopiladi. Qurilmalar panelining chap tomonidagi eshikcha yoki tugmani biroz bosish kifoya. Shuningdek, mazkur jarayonni smartfon yoki ovozli buyruq yordamida ham boshqarishingiz mumkin. Qopqoq ostidagi shkalalar joriy zaryad darajasini ko'ssatadilar.



Energiyani uzatish funksiyasi(V2L)

KIA EV6 salonidagi va tashqarisidagi qurilmalarni quvvatlantirish uchun o'zgaruvchan tok oqimining 220V dan to'lilq foydalaning. To'lilq zaryadlangan batareyada, quvvat uzatish funksiyasi 3,6 kWt quvvatni ta'minlaydi, bu katta televizor va konditsionerni 24 soat davomida quvvatlantirish uchun yetarlidir. Orqa o'rindiq tagidagi rozetkadan foydalish uchun EV Ready yoki Utility rejimini faollashtirish kifoya. Tashqi tomonidan qurilmalarni ularash uchun zaryadlash ulagichiga V2L- adapterini ularash zarur.

Sizga g'amxo'rlik ila yaratilgan

Ilg'or texnologik echimlar, sayohatlaringizni xavfsizroq qilish uchun Kia muhandislari tomonidan maxsus ishlab chiqilgan tizimlarni sezdirmasdan himoyalab, ularga g'amxo'rlik qiladilar. Kia EV6 krossoveri jihozlangan to'lq privod, hatto qish faslidida ham yuqori dinamikalik ish xarakteristikalarini ta'minlaydi, baland klirens esa o'tuvchanlik qobiliyatini oshiradi. Siz faqatgina sayohatdan zavqlanishingiz kerak bo'ladi.





UAQ elektron selektori

Uzatmalarni almashtirtish uchun faqatgina tormoz pedalini bosishingiz va transmissiyani boshqarish shaybasini chagpa va o'ngga burishingiz kifoyadir. P tugmasi KIA EV6 ni tohtab turish rejimiga o'tkazadi. "Plyus" va "minus" belgilariiga ega yangi rul osti o'zgartirjichlar, tizimning soddaligini ta'kidlaydi.



Drive Mode haydash rejimlarining tanlovi

Kia EV6 sizning haydash uslubingizga qarab moslashishi mumkin. Ruldagi tugma yoki ovozli buyruq yordamida Normal, Sport yoki Eco rejiminini tanlang. Sport rejimida (Sport) intensiv ravishda tezlashing yoki tejamkor bo'lgan (Eco) rejim bilan sayohatingiz masofasini uzaytirib, energiyani tejang. Har bir rejim, qorong'ida oqdan qora rangga o'zgaradigan qurilmalar panelida, o'ziga xos vizual stiliga ega.



Aqlii rekuperativ tormozlanish tizimi (SRS 2.0)

O'z yurishi bilan harakatlanishda, tizim batareyani zaryadlashga imkon beradi. Faollashtirish uchun o'ng yaproqchani torting. Navigatsiya tizimi va radar ma'lumotlaridan foydalangan holda SRS 2.0 rekuperatsiya kuchini so'zlaydi va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masoфа o'zgarsa reaktsiya bildiradi. Qurilmalar panelidagi o'qcha rekuperatsiya darajasini aks ettiradi.

O'zingizning noyob rang va uslubingizni tanlang

Kia EV6 - siz o'zingizga mos keladiganini tanlashingiz uchun, yorqindan tortib to horg'inigacha bo'lgan ranglar palitrasining keng spektrni qamrab olgan. G'ildirak disklari ikki hil dizaynda taqdim etilib, ularning har biri nafaqat ajoyib ko'rinishga egadirlar, balki aerodinamikani ham yaxshilaydilar.



Kuzov ranglari



Steel Gray (KLG)*



Interstellar Gray (AGT)*



Glacier (GLB)*



Deep Forest (G4E)*



Gravity Blue (B4U)*



Yacht Blue (DU3)



Runway Red (CR5)



Aurora Black Pearl (ABP)




Moonscape (KLM)




Snow White Pearl (SWP)

Gabaritlar (mm)***



1 880




830

2 900

950

1 550



G'ildirak disklari



19 dyuymli yengil
qotishmalardan
tayorlangan disklar



20 dyuymli yengil
qotishmalardan
tayorlangan disklar

Faralar



Proektion yorug'lilikdiodli
faralar


*GT-Line komplektatsiyasi uchun mayjud emas

** GT-Line komplektatsiyasining gabaritlari farqlanishi mumkin

Kia EV6 dan ilhomlaning

Rasmiy kia.uz sayti orqali ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ling

Barcha ma'lumotlar va tasvirlar bosib chiqarish vaqtida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslanadi. Kompaniya oldindan ogohlantirishsiz o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. To'liq komplektatsiyalar ro'yxatini va qo'shimcha ma'lumotlarni Kia dilerlariga murojaat qilish orqali olishingiz mumkin.



* 5 yil yoki 150 000 km ga kafolat, www.kia.uz saytida va avtomobilning servis kitobchasiida ko'rsatilgan shartlar asosida amal qiladi.

** Ba'zi elementlarni bezatish uchun tabiiy va sun'iy terining kombinatsiyalaridan foydalanilishi mumkin.

Avtomobilning tashqi ko'rinishi reklamada ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.